

Emina ACHILOVA,
*Toshkent viloyati Chirchiq davlat
pedagogika instituti o'qituvchisi*

SUJET, OBRAZ, USLUB XUSUSIYATLARI

(“Tushda kechgan umrlar” romanı asosida)

Adabiyotshunoslikda ijodkor badiiy mahoratini yoritish masalasi muhim ahamiyatga ega. Chunki busiz badiiy-estetik tafakkurni boyitib, yangilab, rivojlantirib bo’lmaydi. Bunda, ayniqsa, hayotni badiiy tasvirlash, betakror obrazlar yaratish, milliy adabiyotimiz xazinasini yangi poetik kashfiyotlar bilan boyitishga muvaffaq bo’lgan yozuvchilar ijodini tadqiq qilish dolzARB vazifadir. Shu ma’noda XX asr o’zbek nasrinining taniqli va killaridan biri O’tkir Hoshimov asarlarini o’rganish, yozuvchining o’ziga xos uslubi va badiiy mahoratini tadqiq etish muhimdir.

“Tushda kechgan umrlar” romanida, adibning bundan oldin yaratilgan “Ikki eshik orasi” romanidagi kabi, voqealar bir necha roviy tilidan hikoya qilinadi. Bu usul adibga o’z g’oyasini ifodalashning qulay vositasi bo’lib xizmat qilgan, qolaversa, asar sujetining o’ziga xosligini ham ta’minlagan. Badiiy asarda sujet yetakchi ahamiyatga ega. “Sujet” terminiga ilmiy adabiyotlarda turlicha ta’riflar berilgan. Masalan, “Adabiyotshunoslik lug’ati”da: “Sujet (frans. – predmet, “asosga qo’yligan narsa”) badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog’liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlardan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi. Umuman, sujetlilik badiiy adabiyotning o’ziga xos xususiyatlaridan biri bo’lib, barcha turdagı badiiy asarlarda ham sujet mavjuddir”, deyiladi. Har bir asarning sujeti qaysi janrga mansubligiga qarab o’ziga xos tarzda bo’ladi. Xususan, epik janrdagi asarlar sujet va kompozitsiyasi yaxlit butunlikka egaligi bilan lirik va dramatik turlarga mansub asarlardan farqlanib turadi. Muallif uchun sujet voqealarini personajlar xarakterini ochish, shakllantirishda muhim asos vazifasini o’taydi. “Sujetning badiiy asardagi funktsiyalari haqida so’z ketganda, avvalo, uning asar problemasini badiiy tadqiq etishga imkon beradigan hayot materialini uyushtirib berishini aytish kerak”. Demak, sujetning qandayligi muallif niyatiga bog’liqdır. Masalan, “Tushda kechgan umrlar” romanı sujetida voqealarning bir necha personaj hayoti misolida ko’rsatilishi – muallif ijodiy niyatini amalga oshirishning qulay usuli bo’lgan. Negaki, romandagi sujet chizig’ining Rustam, Komissar, Qurbonoy xola liniyalari orasida kechishi yozuvchini yozishga undagan muammolarni ifodalashga imkon bergen. Jumladan, farosh kampir Qurbonoy xolaning qismati, komissar Soat G’aniyevning fojiasi roman bosh qahramoni Rustamning taqdiri bilan bog’liq voqealariga uzviy bog’langan holda olib kiriladi va yozuvchiga Afg’on urushi hamda “O’zbek ishi” fojalari bilan bog’liq muammolarni tasvirlashga zamin yaratgan.

Albatta, har qanday badiiy asar sujeti katta-kichik personajlarning harakatidan tashkil topadi. Harakat

tashqi tomonlama yoki ichki – o’y-xayol, ruhiyatdagi o’zgarishlar tarzida bo’ladi. Shunga asoslanib, badiiy asarlarda harakat tiplaridan qaysi biri yetakchilik qilishiga qarab sujet ikki turga ajratiladi: a) “tashqi harakat” dinamikasiga asoslangan sujet; b) “ichki harakat” dinamikasiga asoslangan sujet. Tashqi harakat dinamikasiga asoslangan sujetlarda personajlarning muayyan maqsad yo’lidagi xatti-harakatlari, kurashi va to’qnashuvlari, hayotidagi burilishlar tasvirlanadi, shu asosda, ularning taqdirida, ijtimoiy mavqeyida muayyan o’zgarishlar yuz beradi. Bu xil sujetli asarlarda voqe to’la-to’kis tasvirlanadi, u o’z holicha ham badiiy estetik qimmat kasb etadi. Sujetning ikkinchi tipiga asoslangan asarlar adabiyotimizda o’tgan asrning 80-yillariga kelib yaratila boshlandi. Jumladan, “Tushda kechgan umrlar” asarida tashqi harakat dinamikasiga asoslangan sujet yetakchilik qiladi. Unda Rustam, komissar, Qurbonoy xola kabi obrazlar hayotiga oid voqealar, burilishlar, o’zgarishlar to’la tasvirlangan. Lekin qahramonlarning o’y-xayollari, ruhiyatida kechayotgan o’zgarishlarga asoslanib aytish mumkinki, asarda ichki harakat dinamikasiga asoslangan sujet elementlari ham bor.

“Tushda kechgan umrlar” romanida biz har ikki sujet turining qorishiq kelgan holatini kuzatamiz. Asarda xronikal sujetga xos qahramon taqdirini davriy izchilikda, uning xarakterini rivojlanishda ko’rsatish, asosiy sujet bilan yondosh holda yordamchi sujet chiziqlarini harakatlantirish orqali juda katta hayot materialini qamrab olish imkoniyatlaridan unumli foydalilanigan. Muallif romanda retrospeksiya – zamonda ortga qaytish usulidan ham keng foydalangan. Kuzatishlarga tayanib aytish mumkinki, sujetning mazkur turi asarda yetakchi o’rinni egallagan. Asar bosh qahramon – Rustamning oxirgi kundaligi bayoni bilan boshlanadi va Qurbonoy xolaning har kungi tashvishlariga ulanib ketadi. Aynan Qurbonoy xola asar boshidayoq Rustamning murdasini ko’rib qoladi. Roman kulminatsiya bilan boshlanadi. So’ng yozuvchi ortga chekinish usulini qo’llab, bosh qahramon – Rustamning o’limi va u bilan bog’liq tafsilotlarni yoritishga kirishadi. Bu roman sujeti odatdagagi sujetlardan bir oz farqli. Unda asar sujeti bir nechta liniyalarga bo’lingan.


Yozuvchi har bir sujet liniyasini mustaqil tarzda rivojlantiradi, ularning har birining o’z konflikti, tuguni, voqealar rivoji, kulminatsiyasi, yechimi bor. Rustam bilan bog’liq sujet liniyasi kulminatsiyadan boshlanib, so’ng ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji va yechim ketma-ketligida tasvirlanadi. Ma’lumki, badiiy asar sujeti ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim singari unsurlardan tarkib topadi. Ekspozitsiya sujetning boshlanish qismi bo’lib, o’quvchini asar voqealarini

kechadigan joy, qahramonlar, asar konflikti yetilgan shart-sharoitlar bilan tanishtiradi. Aytish kerakki, ekspozitsiya hajm e'tibori bilan turlicha bo'lishi va asarning turli o'rinalarda kelishi, ba'zan umuman tushirib qoldirilishi ham mumkin. "Tushda kechgan umrlar" romanida ekspozitsiya kechikkan holda, ya'ni kulminatsiyadan so'ng keladi. So'ng Rustamning o'limi bilan bog'liq tafsilotlar ketadi. Qurbanoy xola liniyasida esa, ekspozitsiya tartib bilan kelgan. Uning biqini achishib uyg'onishi-yu, ertalablar ko'cha supurishga chiqishi bilan bog'liq voqealar tasviri ekspozitsiyadir. Komissar liniyasida esa u qisqaroq va voqealar rivoji oralig'ida beriladi.

Romanda tugun ham o'ziga xos tarzda berilgan. Tugun asar voqealarining boshlanishiga turtki bergen voqeas, asar konflikti belgilangan joydir. Ekspozitsiyadan farqli o'laroq, tugun sujetning zarur elementi sanaladi. Tugun, odatda, asarning boshlanishida, ekspozitsiyadan keyinoq keladi. Shunisi ham borki, ba'zi katta hajmli asarlar sujetida bir emas, bir nechta tugun bo'lishi ham mumkin. "Tushda kechgan umrlar"da ham shunday. Afg'on urushiga olinishi Rustam liniyasining tuguni bo'lsa, Soat G'aniyevning ko'nglida "eshonvachcha" Fotimaga nisbatan nimalarningdir uyg'onishi va bolalar tomonidan izzat-nafsi kansitilgan holati – komissar liniyasining tuguni.

Tugundan keyin keladigan voqealar zanjiri voqeas rivoji deb ataladi. Odatda, sujet voqealar bosqich-ma-bosqich rivojlantirib boriladi. Asar voqealar rivojining eng yuqori nuqtasi – konflikt benihoya kuchaygan o'ren kulminatsiya deb ataladi. Masalan, Rustamning o'limi roman kulminatsiyasi sanaladi. Komissarning o'g'li Mauzerning: "Sizning o'g'lingiz ekanimdan uyalaman", degan paytdagi holatni komissar liniyasining kulminatsiyasi, deyish mumkin. Chunki ayni shu nuqtada komissarning va tuzumning g'ayriinsoniylikka asoslangan mohiyati ko'rsatiladi. Shu gap Soat G'aniyev ko'ksini o'qdek teshib o'tadi. Kulminatsiya endi asar voqealarining yechimga tomon harakatini, bir tomoniga hal bo'lishini taqozo qiladi. Yechim sujet voqealarini rivojining yakuni, ularning niyoyasida qahramonlar ruhiyatida, taqdirida yuzaga kelgan holatdir. Yechimda konfliktli holat, qahramonlar orasidagi ziddiyatlar o'zining badiiy yechimini topadi. Yechim konfliktning hal bo'lganini ko'rsatishi bilan birga, uning hal bo'lmasligini ham ko'rsatadi.

Yuqoridagi mulohazalardan ma'lum bo'ladi, tugun, voqeas rivoji va kulminatsiya sujetni tutib turuvchi asosiy unsurlar sanaladi va ular har qanday sujetda mavjud. Ekspozitsiya va yechim esa sujetning shart bo'lmasligan elementlari bo'lib, ularning asarda bo'lish yoki bo'lmasligi yozuvchining ijodiy niyati, individual uslubi, badiiy tasvir va talqin yo'siniga bog'liqidir.



"Tushda kechgan umrlar" romanida yozuvchi qo'ilagan sujet turi retrospeksiya deb ataladi. Uning mohiyati shundaki, bunda yozuvchi sujet voqealarini to'xtatib o'tmishga, ilgari bo'lib o'tgan voqealar tasviriga o'tadi. Roman boshlanishida tasvirlangan farrosh Qurbanoy xola roman o'talariga kelib otasi nohaq qamalgan, onasi komissar tomonidan zo'rlangan 14 yoshli qizcha tarzida namoyon bo'ladi.

Adib zarur o'rinda asarda tasvirlanayotgan vaqt dan chekinib, o'tmishda yuz bergen voqealarini tasvirlaydi va bu "retrospektiv vaqt" deyiladi. Yozuvchi "parallel vaqt" dan ham unumli foydalangan. Unda yuz berishinga ko'ra bir paytga to'g'ri keladigan voqealar navbat bilan tasvirlangan. Biz buni Rustamning Afg'on urushida ekani, dadasing qamalishi, komissarning o'g'illari bilan bog'liq kechayotgan hayoti, Qurbanoy xolaning qizi Umida va nabiralar bilan kechayotgan voqealar tasvirining ketma-ket o'ren almashib tasvirlanishida ko'rishimiz mumkin.

O'tkir Hoshimov bu asarida millatimiz boshiga tushgan og'ir fojiani ildizi bilan ochib bergen. Tariximizning o'rigli nuqtalari haqida mushohada yuritgan. Eng muhim, buni mahorat bilan uddalagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
2. Normatov U. Nasrimiz ufqlari. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.
3. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.
4. Hoshimov O'. Tushda kechgan umrlar. Roman. – Toshkent: G.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002.